

*Umurzakova Dilnoza Egamberdiyevna
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros
xalqaro universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

MAKTABGACHA TA’LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallifning maktabgacha ta’lim xizmatlarini xorij tajribasidan samarali foylanib, mamlakatimiz maktabgacha ta’lim xizmatlari shakllantirish va rivojlantirishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim xizmatlarining hozirgi holati, istiqbollari va uni takomillashtirishga qaratilgan fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim xizmatlari, xizmat ko‘rsatish, ta’lim xizmati, rivojlantirish, islohot, innovatsiya, takomillashtirish, samaradorlik, xorij tajribasi.

Kirish Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, “bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi”[8]. Shu tufayli xizmatlar tarkibida ta’lim sohasiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. “Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o‘sishining asosiy qismi xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keladi. Masalan, bugungi kunda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi AQShda 78 % ni, Yevropa mamlakatlarida 70 % dan ortiqni, Xitoyda - 51,6 % ni tashkil qiladi. MDH davlatlarida ham bu ko‘rsatkich yuqori. Masalan, Qozog‘istonda 54,2 %, Belarusda 48,0%ni tashkil etgan”[9], shuningdek, YaIMning bir qismi ta’lim sohasini rivojlantirish uchun yo‘naltirilmoqda. Jumladan, AQShda yalpi ichki mahsulotning 6,6 %, Germaniyada 5,8 %, Rossiyada 3,6 % ni tashkil qilmoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimida xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish natijasida oliy ta’lim muassasalari daromadlarini oshirish hamda ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishning ahamiyati tobora ortib boradi.

Xususan, maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha keyingi yillarda mamlakatimizda ijobjiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan Qarorda “...nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1412 ta davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar imzolanganligi” [2] maktabgacha ta’lim tizimiga keng e’tibor berilayotganini namoyon etadi. Shuningdek, o‘tgan besh yil mobaynida maktabgacha ta’lim bilan 1,5 mln. nafar bolalarni qamrab olingan bo‘lsa, bu 2017-yildagi ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘proqdir. Joriy yilning oxiriga qadar qamrovni 65,5% ga yetkazish rejalashtirilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalari (MTM) soni ham tobora ortib bormoqda. Agar 2017-yilda MTMlarning umumiyligi soni 5 mingta bo‘lgan bo‘lsa, hozirga kelib ularning soni 17 mingtadan ortganligi maktabgacha ta’lim xizmatlariga alohida e’tibor berilyotganligi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qamrovi hamda sifatini yuksaltirish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini tadbiq etish bo‘yicha V.Stiven Barnettning “Kompensatsion erta bolalik ta’limining afzallikkleri” nomli ilmiy maqolasida klassik

eksperiment va foyda-xarajat tahlilini o‘z ichiga olgan uzoq muddatli ta’sirlar haqidagi tadqiqotlar olib borilgan. Kompensatsion erta bolalik ta’limi aql (IQ) testlari bilan yetarli darajada o‘lchanmaydigan kognitiv qobiliyatlarga hissa qo‘sish orqali uzoq muddatli akademik muvaffaqiyatni ta’minlashi asoslab berilgan. Shuningdek, ta’limdagи ijtimoiy-iqtisodiy natijalar, jumladan, bandlik, o‘smyrilik homiladorligi va ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali maktabgacha ta’lim muassasalariga ta’sir etish jarayonlari o‘rganilgan [5].

Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayev, O.M.Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo‘yicha rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo‘llari qarab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalariga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari, faoliyat mazmuni va ularni tashkil etish yo‘llari tahlil etilgan [6].

N.R.Sharopova “Maktabgacha ta’lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini takomillashtirish” nomli avtoreferatida maktabgacha ta’lim xizmatlari bozorini hozirgi holati va sohani rivojlantirish hamda unda zamonaviy marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim xizmatlari marketing tajribalaridan samarali foydalanish orqali mamlakatimiz maktabgacha ta’lim muassasalarini faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [7].

M.Q.Aytbayevan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini jihozlash: muammo va yechim” nomli ilmiy maqolasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini jihozlashda yuzaga kelayotgan muammolarni yechimini yechish bo‘yicha ilmiy va nazariy takliflar, tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ushbu taklif va tavsiyalar xorij tajribasi asosida jihozlash, tarbiyalanuvchilarga ta’lim berish yo‘nalishlari keltirilgan bo‘lib, ushbu tavsiyalar asosida amaliy xulosalar taklif etilgan [8].

M.X.Qilichova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari” nomli ilmiy maqolasida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Asosan rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlaridagi maktabgacha ta’lim muassasalarini shakllari va sharoitlari haqida ma’lumotlar keltirilgan hamda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va uning natijaviyligiga doir fikrlar yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim va tarbiyaga oid xorijiy tajribalarni o‘rganish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilgan [9].

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur muammoni tadqiqoti jarayonida statistik va iqtisodiy tahlil, qiyoslash, guruhash, tanlab kuzatish hamda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, mantiqiy yondashuv kabi uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilimlardan bizga ma’lumki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishga ta’lim tizimiga qaratilgan e’tibor orqali erishiladi. Ta’lim tizimi hozirgi vaqtida respublikamizda qonunga muvofiq, turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiyo‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim kabi turlarga bo‘linib bularning ichida, insonlarni yetuk

shaxs sifatida shakllanishida mактабгача та'lim muassasalari tamonidan ko'rsatiladigan ta'lim-tarbiya xizmatlari hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlar hozirgi davrda o'zining natijasini bermoqda.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida 10000 tadan ziyod maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud. Ularda 3-6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olish darajasi 61 foizini tashkil etganligi fikrimiz tasdig'idir. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlariga ko'ra maktabgacha ta'lim-maktabgacha yoshdagи bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy hislatlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi [8]. Demak, yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda, tarbiyalanuvchilarning shaxs sifatida shakllanishidagi jarayonda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyani ijtimoiy xizmat turi sifatida qarashimiz mumkin. Agar ta'lim xizmatlari sifatli va samarali tashkil etilsa tarbiyalanuvchilarning komil inson sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois ham mamlakatimizda amlaga oshiriladigan islohotlarning bir qismi kelajak avlodni tarbiyalash, ta'lim berish, davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan kadrlarni yetkizib berishdan iboratdir.

Xususan, maktabgacha ta'lim xizmatlarini isloq qilish islohotlarni amalga oshirish bo'yicha, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "inson kapitali" tushunchasi bilan bog'laydi. Ya'ni "...rivojlangan mamlaktlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" [3] deb ta'kidlab o'tganlari bejiz emas.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tamonidan "...maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" [4] kerak deb ta'kidlaganliklari maktabgacha ta'lim tizimiga bolalarni qamrab olish darajasini yanada oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, bir yoshdan olti yoshli bolalar ta'lim-tarbiyasiga alohida etibor qaratishni, maktabgacha ta'lim xizmatlarini raqamlashtirish, maktabgacha ta'lim sohasi faoliyatini xususiylashtirish va davlat xususiy sherikchilik dasturlari doirasida faoliyatini amaliyotga joriy etish hamda davlatimiz rivoji uchun munosib hissa qo'shadigan "Vatanparvar" insonlarni tarbiyalashni taqozo etmoqda.

Shu maqsadda o'tgan qisqa davr ichida ko'plar loyihalar amaliyotga tadbiq etildi. Fikrimiz tasdig'i sifatida 2018-yil davlat budgetidan 427 bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so'm mablag' ajratildi, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasi kapital ta'mirlandi, davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) asosida yangi turdagи maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etildi, 2018-yil 1-yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr-energiyasi uchun sarflanadigan mablag'ning yarmi davlat budgeti hisobidan qoplanib berildi, bog'chalarda bolalarni sog'lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash maqsadida 2018-yildan boshlab har bir maktabgacha ta'lim muassasasiga 10-15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun biriktirildi va bolalar bog'chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, "Keytering" xizmatini yo'lga qo'yish mexanizmi ishlab chiqildi, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyati takomillashtirildi, maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul

kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishi tom ma'noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Xususan, o'tgan davrda "Finance Inquirer" nashri "RGCA" xalqaro tadqiqoti natijalari va "UNICEF", Juhon banki va "OECD" ma'lumotlariga tayanib, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Davlatimiz rahbariyati tamonidan olib borilgan oqilonha islohotlar sababli mamlakatimiz jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi (1-jadval).

1-Jadval.

Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olinishi dinamikasi bo'yicha jahon reytingi [10]

Nº	Mamlakat	2018/2019	2019/2020	2018/2020
1	O'zbekiston	46%	9%	59%
2	Tojikiston	33%	0%	33%
3	Belarus	5%	2%	7%
4	Finlandiya	3%	4%	7%
5	Qozog'iston	4%	0%	4%
6	Litva	2%	2%	4%
7	Turkiya	1%	3%	4%
8	Shvetsariya	0%	2%	2%
9	Polsha	3%	-1%	2%
10	Ozarbayjon	7%	-5%	1%
15	Rossiya Federatsiyasi	0%	0%	0%
42	Buyuk Britaniya	0%	-28%	28%
43	AQSh	0%	-35%	-35%
44	Avstralija	-3%	-34%	-36%
45	Yangi Zelandiya	-5%	-34%	-37%
46	Irlandiya	0%	-39%	-39%

Hisobot 2018-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan maktabgacha ta'limning uzoq muddatli tendensiyalarning umumiyo ko'rinishini o'z ichiga oladi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat hududlarda maktabgacha ta'lim bilan bog'liq vaziyat to'xtab qolgan yoki salbiy o'sish zonasiga o'tgan, bir qator mamlakatlarda esa ta'sirchan o'sish kuzatilmoxda. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olinishi dinamikasi bo'yicha eng yorqin misol O'zbekiston bo'lib, u yerda uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim xizmatlari bilan qamrab olishning o'sish dinamikasi ko'rib chiqilayotgan davrda 59 foizni tashkil etdi.

Ammo, maktabgacha ta'lim xizmatlarini to'laqonli samarali ishlashi uchun amalga oshiradigan strategik maqsad va vazifalar talaygina. Jumladan, maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanganligi bois, ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash hamda maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni mifik tab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdag'i bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi dinamikasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 40 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 60 foizni tashkil

etmoqda. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining yetishmasligi, moddiy-texnika bazasi zamонавиyl talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Fikrimiz tasdig'i sifati tadqiqotlarimiz davomida o'rganishlar olib bordik. Xususan, davlatimizda uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari qamrab olinishi 2013-yilda 18,8 % tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 62,0 % ni tashkil etgan. Ammo, bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida qamrab olish bo'yicha tahlillarimizda mamlakatimizda olib borilgan oqilona islohotlar natijasida o'sish dinamikasini ko'rishimiz, ammo, hududlar bo'yicha teng taqsimlanmaganligi ko'rishimiz, shuningdek, uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarni qamrab olish darajasiga nisbatan past ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-Jadval.

Mamlakatimizda bir yoshdan olti yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan qamrab olinishi (%) [11]

Hududlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
O'zbekiston Respublikasi	14,4	15,3	15,5	17,3	17,0	21,0	26,3	27,3	29,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13,6	15,8	16,4	17,1	20,0	25,2	36,5	40,3	40,3
Andijon	12,0	12,7	14,2	15,8	14,7	20,3	28,5	31,2	30,9
Buxoro	13,4	14,4	14,8	16,2	17,4	23,4	30,9	30,7	34,9
Jizzax	11,0	11,2	10,8	14,6	10,6	18,7	24,7	27,8	30,4
Qashqadaryo	6,7	7,2	7,3	12,0	12,0	10,7	14,2	16,1	17,5
Navoiy	17,3	17,5	17,8	19,6	21,3	23,0	28,9	30,1	35,6
Namangan	14,0	14,1	14,6	16,4	15,5	21,2	29,0	32,3	31,2
Samarqand	10,5	12,6	11,7	15,2	12,1	15,9	23,1	25,5	26,0
Surxondaryo	7,0	7,5	7,6	8,4	7,4	10,0	14,0	13,9	17,8
Sirdaryo	14,6	14,5	15,4	18,9	17,2	24,5	29,2	26,6	30,2
Toshkent	17,1	18,2	18,9	19,5	20,3	22,3	24,7	23,0	27,2
Farg'ona	16,9	17,0	17,0	17,9	18,3	25,2	28,9	30,1	33,8
Xorazm	9,2	9,8	9,6	10,0	14,7	20,5	24,4	25,4	32,2
Toshkent sh.	46,5	49,8	51,7	52,3	49,8	49,9	49,4	42,4	42,3

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz bir yoshdan olti yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan qamrab olinishi 2013-yilda mamlakatimizda 14,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 29,4 %ni tashkil etgan. O'tgan davrga nisbatan o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin, ammo, bu natijalar mamlakat maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari qamrovi bo'yicha past ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda 2013-yilda 46,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 52,3%ni, 2021-yilga kelib 42,3% ko'rsatkichni ko'rsatmoqda. Bu hozirgi davrda Toshkent shahrida bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar sonining ko'payganini anglatmoqda. Shuningdek, bir yoshdan olti yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari yetishmasligini anglatmoqda. Jadval ma'lumotlari asosida eng past ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatiga

to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, 2013-yilda 6,7 % ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 17,5 % dinamikasini tashkil etmoqda. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki Qashqadaryo viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari qamrov darajasi pastligi, shuningdek, MTMlarning yetishmasligi aholi sonining boshqa hududlarga nisbatan kamligini anglatmoqda. Ushbu jadval ma’lumotlaridan maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat tamonidan amalga oshiriladigan dasturlar va islohotlar o‘z samarasini bermoqda, ammo, hududlar kesimida ravon rivojlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda uch yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarini qamrov darajasi bo‘yicha izchil dasturlar, islohotlar, huquqiy qo‘llash mexanizmini bir yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatiga ham qo‘llash hamda alohida e’tibor berish maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining sifatli ta’lim-tarbiya olishda samara berishi mumkin.

Fikrimizcha, MTMlarni modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini xorij tajribasi asosida oshirish, ta’lim metodlarini samarali tashkil etish yo‘llarini ishlab chiqish, DXSh doirasida yangi MTMlarni tashkil etish hamda xususiy bog‘chalarni ochish jarayoniga imtiyozlar va alohida e’tibor berish, xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari barpo etishda “kraufdanding” raqamli platformasi orqali moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash joizki “kraufdanding” raqamli platformasi orqali xalqaro, mamlakat va aholi yashash hududlarida aholining tashabbusi asosida MTMlarni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, shuningdek, yangi MTMlarni tashkil etish mumkin bo‘ladi. Ushbu raqamli platforma rivojlangan xorij mamlakatlarida ijtimoiy, mediya, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish sohalarini shakllantirishda aholi o‘rtasida raqamli platforma orqali ko‘ngillilar o‘zları maql ko‘rgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashi, moliyalashtirishi, kapitalning ishlatish jarayonlarini kuzatib borishi hamda o‘zlarining fikr va takliflarini berishi mumkin bo‘ladi. Shu bois “kraufdanding” raqamli platformasi loyihalar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Xususan, 2018-yilda mamlakatimizda Xalq ta’limi vazirligi axborot xizmati tamonidan “kraufdanding” (xalq tomonidan moliyalash) raqamli platformasi “Mfond.uz” ishga tushirildi. Kraufdanding raqamli platformasi matab rahbarlari uchun o‘quv muassasasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun homiylik mablag‘larini jalb qilishga qaratilgan bir vosita hisoblanib, jalb qilingan kapitalni ishlatishda ochiqlik va moliyalashtiruvchilarga hisobot berish ishlari joriy qilingan. Bunday tajribalardan unumli foydalangan holda amaliyotga joriy etish davlatimizdagi bir yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni milliy vatanparvarlik ruhida, sog‘lom, teran fikrlaydigan komil inson sifatida shakllanishida munosib hissa qo‘sadi.

Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalarni qo‘yadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini xorij tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatlarida bolalar asosan uch yoshdan bog‘chaga qabul qilinadi. Faqatgina juda majbur bo‘lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin [9]. Shuningdek, Yaponiyada bolalar bog‘chasiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki, bunday yoshda bolani bog‘chaga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabablar bo‘lishi kerak. Shuningdek, Singapurda ham maktabgacha ta’limi,

ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Bog'chaga bolalar uch yosdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o'qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o'rgatiladi va shakllantiriladi. Shuningdek, Singapurda davlatga qarashli bog'chalar yo'q. Maktabgacha ta'lim muassasalarining barchasi xususiy bo'lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg'armalar tomonidan boshqariladi. Shu bilan birgalikda Xitoy tajribasiga yuzlanadigan bo'lsak, xitoyliklar bog'chalarga uch oyligidan berishadi. Bunda farzand tarbiyasiga beriladigan asosiy mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmat fazilatlariga alohida e'tibor berishadi. Bu esa xitoyliklarni intizomli bo'lishida munosib hissa qo'shib kelmoqda. Angliyada maktabgacha ta'lim o'quv rejasida nafaqat umumiy ta'lim jarayoniga urg'u beriladi, bunda boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'nikmalarga alohida ahamiyat beriladi.

Bunday xorijiy tajribalardan shuni hulosa qilish mumkinki bunda, har bir rivojlangan xorij mamlakatlari ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor berishini, o'z mintalitetidan kelib chiqib tarbiya yo'nalishlarini belgilashi, maktabgacha ta'lim muassasalarida yangi xizmatlarni shakllantirishda alohida metodlarni ishlab chiqganligini ko'rshimiz mumkin.

Tadqiqotlarimiz davomida maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini tahlil qilishimiz natijasida MTMlarni rivojlantirish bosqichini ikki guruhga bo'lishimizni taqozo etmoqda. Birinchi guruhga MTMlarni moddiy texnik bazasini shakllantirish, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, modernizatsiya qilish, imtiyozli kreditlar berish, shuningdek, davlat tamonidan huquqiy bazasini takomillashtirish jarayonlarini o'z ichiga olsa, ikkinchi guruhga ta'lim-tarbiya berish, kadrlar malakasini oshirish, ta'lim-tarbiya berishni milliy modeleni ishlab chiqish va bolalarni vatanparvar qilib tarbiyalash kabi vazifalardan iborat bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mamlakatimizda maktabgacha ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish uchun MTMlarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy bog'chalarni guruhli tizimini tashkil etish, davlat MTMlarni moddiy texnik bazasini shakllantirish, MTMlarni modernizatsiya qilish, malakali kadrlarni jalb qilish, faoliyat ko'rsatyotgan tarbiyachi-xodimlarni zamon talablariga mos holda malakasini oshirish, ta'lim-tarbiya berishni "O'zbekona" modelini ishlab chiqish, bunda, milliy urf-odatlarimiz, diniy qarashlarimizdan kelib chiqib maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini vatanparvar shaxs sifatida shakllanishida xizmat qiladigan omillarni hisobga olgan holda tarbiya berishni shakllantirishimiz lozim. Ushbu jarayonlarni tadbiq etish mamlakatimiz yoshlarini komil inson sifatida ulg'ayishi hamda mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shishadigan kadrlar yetishib chiqishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni berdik:

Birinchidan, mamlakatimizda mayjud MTMlarni davlat tassarufidan bosqichma-bosqich chiqarish. Bunda xususiylashtirilgan MTMlarni oilaviy, kichik, o'rta va katta shakldagi MTMlarga aylantirish hamda aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida ushbu sohaga DXSh dasturlarini keng jalb qilish. Bunda kam ta'minlangan, temir daftarda turuvchi hamda daromadi kam aholi farzandlariga DXSh doirasida tashkil etilgan MTMlar xizmatlarini taklif etish va tashkillashtirish;

Ikkinchidan, rivojlangan xorij mamlakatlar maktabgacha ta'lim xizmatlaridan xulosa qilgan holda MTMlarni moddiy texnik bazasini yangilash, zamonaviy ta'lim-tarbiya usullarida ta'lim berish jarayonlarini tashkil etish, MTMlarda ikki yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun maxsus tarbiya berish kurslarini shakllantirish hamda tarbiya oluvchilarga ularning qiziqish doirasidan kelib chiqib komil inson sifatida shakllanishida ta'lim-tarbiya berishni joriy etish;

Uchunchidan, maktabgacha ta'lim xizmatlarini samarali shakllantirishda xorij tajribasiga tayangan holda ta'lim-tarbiya berishning "O'zbekona" modelini ishlab chiqish.

Bunda modelning ishlash maqsadi tarbiyalanuvchilarga badantarbiya, adabiyotshunoslik, matematika fanlariga ixtisoslashgan shaklda ta’lim-tarbiya berishni olib borish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, diniy qarashlarimiz, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish hislatlarini barpo etish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslangan vazifalarni qamrab olishi darkor;

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari sohasi faoliyati, ta’lim-tarbiya jarayoni, sohani qo‘llab-quvvatlashning qonunchilik bazani takomillashtirish;

Beshinchidan, qishloq, mahalla, pasyolka, kichik shaharlar hamda katta shaharlarda yashash hududlarida raqamlı “kraudfanding” raqamlı platformasi orqali hayriya mablag‘lari asosida yangi turdagı MTMlarni qurish, mavjud MTMlarni modernizatsiya qilish hamda faoliyat ko‘rsatayotgan MTMlarni o‘quv qurollari, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash.

Ushbu taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy yetilishi orqali mamlakatimiz rivojlanishi uchun xizmat qiladigan vatanparvar insonlarni yetishib chiqishida, yangi ish o‘rinlarini yaratishda hamda bobolarimizdek buyuk insonlarni shakllanishida muhim hissa qo‘shgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2707-sonli Qarori. 2016 yil 29 dekabr. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 12 apreldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5071-son Qarori. www.lex.uz

3. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” -T.:—O‘zbekiston, 2021. 23-bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori. Toshkent sh., 2019 yil 8 may. www.lex.uz

5. B. Стивен Барнеттнинг “Компенсацион эрта болалик таълимининг афзалликлари”. <https://www.Jstor.org/стабилен/145736>

6. Q.Ж.Мирзаев, М.Q.Пардаев, О.М.Пардаев “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма. “IQTISOD-MOLIYA”, 2014 йил. 384-б.

7. Н.Р.Шаропова “Мактабгача таълим хизматлари бозорида маркетинг таддиқотларини такомillаштириш” номли Автореферати. Тошкент. 2021 й

8. M.Q.Aytbaevning “Maktabgacha ta’lim tas’hkilotlarini jihozlash: muammo va yechim” Applied Sciences and Yeducation Hosted from Berlin, Germany. <https://conferencea.org> August 30th 2022

9. M.X.Qilichova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari” Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-739-746

10. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2301>

11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>